

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASHNING TARBIYAVIY TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti dotsenti, f.f.d.

Quldoshev Asliddin Tursunovich

Annotasiya: Maqolada yangi O'zbekiston bunyodkori bo'lgan yosh avlod tarbiyasida ularning ma'naviy axloqiy qiyofasini shakllantirish va ta'lim – tarbiyaviy jarayonining uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yetuklik, axloqiy mas'uliyat, komillik, g'oyaviy tarbiya, g'oyaviy tahdidlar, mafkuraviy immunitet, kasbiy etiket, etuk mutaxassis.

Kirish. Respublikamizda hozirgi vaqtda g'oyat qisqa bir davr ichida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ulkan islohotlar yuksak saviyada amalga oshirilmoqda. SHunday ekan, amalga oshirilayotgan islohotlar rivojida, bugungi davr talablariga javob beradigan, har bir rivojlanayotgan sohalarni malakali, zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan barcha tarmoq sohalarini malakali kadrlar bilan ta'minlanishida oliy ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini yuksak saviyaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi jamiyat rivojlanishidagi muhim omillardan biridir. Ushbu holat oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlanishini muntazam takomillashtirishni talab qiladi.

Hozirgi davr taraqqiyoti mezonlari aqliy qobiliyat, ilmiy salohiyat va albatta, ma'naviyat yuksakligi bilan belgilanadi. Ushbu mezonlar mushtarikligini ta'minlab, uni ezgu maqsad sari yo'llovchi milliy g'oyaga ehtiyoj hamisha xalq ruhida aks etmog'i lozim. Ayni ana shu ehtiyoj "Oldimizga qo'yilgan ulkan vazifalarini amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur" [1] ekanligiga undaydi.

Hech bir ikkilanishsiz aytish mumkinki, barkamol inson shaxsini tarbiyalash, sog'lom avlod kelajagi hakida qayg'urish-jamiyat va millat kelajagi bilan bog'liq jiddiy masaladir. Zero, biz milliy yuksalishimiz oldingi saflarida hamisha yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohiblari bo'lgan bilimli, ilmiy salohiyatli mutaxassislarni, yangi avlod kadrlarini ko'ramiz. SHunday ekan, bugungi kun talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni etuk mutaxassis, o'z sohasining bilimdoni, ilmiy salohiyat hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan zamonaviy kadrlar sifatida eng ilg'or texnika va texnologiyalar bilan jihozlanayotgan sohalar va tarmoqlarni ta'minlash oliy ta'limning birinchi darajali vazifasidir.

SHu o'rinda oliy ta'lim tizimi sohasida belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlovchi yana bir muhim omilni ta'kidlash joizki, aynan shu omil ta'lim tizimini tubdan yangilash borasida olib borilayotgan islohotlarimizning mazmun mohiyatini belgilab beradi. Aniqlik kiritaylik, gap etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida borar ekan, avvalo, eng ilg'or talablarga mos, zamonning intellektual, ilmiy texnikaviy, ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy-mafkuraviy shiddatlariga dosh bera oladigan mutaxassis shaxsi nazarda tutilmog'i lozim. Bunday moslik va tayyorgarlikni esa faqatgina mutaxassislik talablari bilan o'lchab bo'lmaydi. SHunday ekan, biz mutaxassis kadriga uning kasbiy tayyorgarligi, mahorati va qobiliyati bilan cheklanib ta'rif berish oqibatida faqat o'z kasbiy manfaatlaridan kelib chiqib, vaziyatga baho beradigan "qashshoq mutaxassis"ni emas aksincha, o'z mutaxassisligining ijtimoiy ahamiyatini mushohada qilib, professional mahoratini uzluksiz oshirib boradigan, uni jamiyat manfaatlari izmida milliy yuksalish maqsadlari sari safarbar etib, faxr va g'urur tuyg'usini, moddiy va ma'naviy qoniqish hissini anglab etadigan mutaxassis kadrni tarbiyalab berishni maqsad qilib qo'yganimiz.

Mutaxassis kadrlar ma'naviyati masalasiga to'xtalar ekanmiz, ta'kidlash kerakki, har bir mutaxassislik ta'limi o'zida individual va ijtimoiy fazilatlar uyg'unligini qamrab olmoq'i lozimki, bu uyg'unlik mutaxassisning bilim saviyasi va kasbiy etiketini namoyon qilish omiliga aylanadi. Ushbu omil mutaxassis saviyasi va kasbiy madaniyatining ma'naviy-axloqiy mezonlarini belgilab beradi.

Ular quyidagilar:

- tanlagan yo'nalishi bo'yicha o'z kasbining mas'uliyatini his qilgan holda aniq maqsad va rejalar asosida faol pozitsiyaga ega bo'lish;
- o'z qobiliyati, bilimi va kasbiy mahorati, o'z o'rni va mavqeiga moslik darajasini namoyon qilish orqali hurmat va e'tiborga erishish;
- o'z fikri, g'oyasi va rejalarini aniq ravon nutqda bayon etib, atrofdagilarga ta'sir eta olish jur'ati bilan jamoaviy birlik va hamkorlikni qaror toptirish;

Mavzumiz mazmunidan kelib chiqib, biror-bir fan yoki ta'lim sohasiga ortiqcha baho bermagan holda ta'kidlash o'rinli, ta'lim – tarbiyaviy yo'nalishda o'z maqsad va vazifalarini talaba –yoshlarning dunyo-qarashi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy faolligi va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy fanlar o'z mazmuniga monand mutaxassislik bilimlarining sifat samaradorligi va ijtimoiy yo'nal-tirilganligini mutaxassis ongiga singdirib, uning ma'naviy mas'uliyatini tarbiyalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ta'kidlanganidek: "Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish" [2] oliy ta'limni kompleks rivojlantirish va ijtimoiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga doir funksional vazifalari sifatida belgilab berildi.

Bildirilgan fikrlar yakunida belgilangan vazifalarini qay biri muhimroq, ya'ni qaysi omil birlamchi, hal qiluvchi ahamiyatga ega, mutaxassis omilimi, yoki inson omili, degan mazmunda muammoni qo'yadigan bo'lsak, mantiqiylikdan yiroqlashamiz. Donishmand xalqimiz hikmatiga murojaat qiladigan bo'lsak, ayonki, ilm o'rgatmoq, ta'lim bermoqlikni ma'naviyat va ma'rifatdan, madaniyatdan va albatta tarbiyadan aro yo'lda tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat ta'lim va tarbiya birligida yoshlarimizning dunyoqarashini boyitamiz, fikrini teranlashtiramiz, maqsadi va intilishlarini oydinlashtirib dunyoga yangicha ko'z bilan, ilm-ma'rifat ko'zi bilan qarashga undaymiz.

E'tibor qiladigan bo'lsak Prezidentimiz o'zining har bir chiqishda ilm-fan taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishni birinchi galda ma'naviyat va ma'rifat yuksakligi, g'oyaviy-mafkuraviy e'tiqod mustahkamligi bilan bog'lamoqda" yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyador-lar sinfini tayyorlash uchun, O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak" [3].

Yana bir isbot talab qilmas haqiqat shuki, biz milliy yuksalish sari aniq maqsad va vazifalarni belgilab olgan ekanmiz. "Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak" [4]. Zero, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, «globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon qo'yayotgan talablarga javob berishi, undan orqada qolmasligi muhim ahamiyatga ega»[5]. CHunki har tomonlama etuk barkamol avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab og'ir sinov va qiyinchiliklarni engishi, ko'zlangan yuksak maqsad va marralarni egallashi mumkin. SHu o'rinda aytish joizki, mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilayotgan bunday ezgu sa'y-harakatlar zahirida yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunday ma'suliyatli vazifani amalga oshirishda butun ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'limga jiddiy talablar qo'yilmoqda. Ta'kidlash kerakki, ta'limda innovatsiyalar o'quv, uslubiy, ilmiy, pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida shakllangan yangicha yondashuvlar sifatida ta'lim mazmunini rivojlantirishning istiqboli hisoblanadi. SHu bois ular ta'lim tizimining rivoji va ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. YAngi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib borish, talabalarni mustaqil fikrlashga, individual va jamoaviy ishlashga, fikrlarini ilmiy asoslashga, muammoga ijodiy va tanqidiy yondashishga o'rgatadi. SHu ma'noda innovatsion ta'lim talabalarining ijodiy faolligi va bu faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi, o'tkazilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarning sifat samaradorligiga, pedagog xodimlar mahorati oshishiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda xuquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun birinchi navbatda jamiyat a'zolarining ma'naviy-intellektual imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, «Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga intilishga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi»[6]. SHuning uchun bugun O'zbekistonda barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni o'qitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv muhim hisoblanadi. CHunki yoshlar dunyoqarashini eng ilg'or, zamonaviy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, ularning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashda hamda intellektual salohiyatli shaxslar bo'lib etishishlarida va eng asosiysi, ularda mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ijtimoiy fanlar muhim rol o'ynamoqda. Jarayonlar shuni

ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy fanlarning ta'sirida ulkan ijodiy, intellektual, ijtimoiy-siyosiy salohiyatga ega bo'lmoqdalar. SHu bois yoshlar deb atalgan ana shu kuch va salohiyatni yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi sari safarbar etishda ijtimoiy fanlarning o'rni, roli va nufuzi ortib boraveradi.

Xulosa qilib aytish joiski, biz o'z sohamiz mazmunidan kelib chiqib, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy fanlar ahamiyati qay darajada ekanligiga e'tibor qaratdik. YUqorida bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, agar mutaxassislik fanlari ta'limi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sari yo'naltirilar ekan, ijtimoiy fanlarni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad sog'lom fikr va tafakkurga ega, atrof voqelikka haqiqat va adolat ko'zi bilan qaraydigan, o'zining bilimi va kuchini jamiyat taraqqiyoti yo'lida milliy yuksalish sari yo'llashga qodir ma'naviy etuk, barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. // Xalq so'zi gazetasi, 2019 yil 29 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ -2909- sonli Qarori.// lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. // Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 23 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //prezident.uz/lists/view/3324
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "YOshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshrish va O'zbekiston YOshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab - quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106 sonli Farmoni // lex.uz 2017 yil 5 iyul.
6. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston 2017; 27-28b.